



UDK: 37 (11.74)

Nigina RAYIMOVA,
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti doktranti, Buxoro, O'zbekiston
E-mail: nigina3033@gmail.com

BXU dotsenti, PhD G.Hamroyeva taqrizi asosida

PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF FORMING ECOLOGICAL CULTURE (USING THE AVESTA AS AN EXAMPLE)

Annotation

This article presents the philosophical foundations of forming ecological culture (using the Avesta as an example). Ecological culture reflects harmonious and responsible human relationships with nature. The Zoroastrian religious source – the Avesta – views natural elements (earth, water, air) as inseparably connected with human life and cosmic order. These philosophical perspectives help develop ecological awareness and principles of environmental preservation.

Keywords: ecological culture, Avesta, philosophy, harmony with nature, Zoroastrianism.

ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ (НА ПРИМЕРЕ АВЕСТЫ)

Аннотация

В данной статье представлены философские основы формирования экологической культуры (на примере Авесты). Экологическая культура отражает гармоничные и ответственные отношения человека с природой. Религиозный источник зороастризма – Авеста – рассматривает природные элементы (земля, вода, воздух) как неразрывно связанные с жизнью человека и космическим порядком. Эти философские взгляды способствуют формированию экологического сознания и принципов охраны природы.

Ключевые слова: экологическая культура, Авеста, философия, гармония с природой, зороастризм.

EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY ASOSLARI (AVESTO MISOLIDA)

Annotatsiya

Ushbu maqolada ekologik madaniyatni shakllantirishning falsafiy asoslari (Avesto misolida) berildi. Ekologik madaniyat insonning tabiat bilan uyg'un va mas'uliyatli munosabatini ifodalaydi. Zardushtiylik diniy manbasi – Avesto – tabiat elementlarini (yer, suv, havo) inson hayoti va kosmik tartib bilan uzviy bog'liq deb ko'rsatadi. Bu falsafiy qarashlar ekologik ongni rivojlantirish va tabiatni asrab-avaylash tamoyillarini shakllantirishga xizmat qiladi. Avesto prinsiplarida ekologik va ma'naviy qadriyatlar bir-birini to'ldiradi, insonni faqat moddiy manfaat emas, balki axloqiy mas'uliyatni ham his qilishga undaydi.

Kalit so'zlar: ekologik madaniyat, Avesto, falsafa, tabiat bilan uyg'unlik, Zardushtiylik.

Kirish. Insoniyat tarixi ko'rsatadiki, inson paydo bo'lgan ilk davrlardan boshlab tabiat bilan uzviy aloqada yashab kelganini ko'rish mumkin. Ilk ibtidoiy jamiyatlarda inson tabiatni faqat yashash manbasi sifatida emas, balki hayotning ajralmas qismi sifatida qabul qilgan hamda tabiatga nisbatan insoniyatning mas'uliyatli bo'lishini taqozo etgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, insonning tabiatga faol ta'siri qadimdan boshlanib, ekologik tizimlarga muhim o'zgarishlar kiritgan. Ingliz olimi Julian Huxley [1] (1972) ma'lumotlariga ko'ra, insonning tabiatga faol ta'siri taxminan 10 ming yil avval - neolit davrida boshlangan. Chex olimi Y. Yelinek [2] (1982) esa miloddan avvalgi VIII–VII ming yilliklarda Yaqin Sharqda ilk shaharlar va texnik faoliyat rivojlanganini bildiradi. V.S. Altunin va A.S. Shulyak [3] (1991) insonning tabiatga ta'siri mezolit davridayoq kuchayganini ta'kidlaydi. Arxeologik tadqiqotlar, xususan B.A. Ribakov [4] ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston hududida eramizgacha bo'lgan X–VI ming yilliklar sahro va yarim sahro sharoitlariga mansub bo'lgan. E.D. Mamedov va G.N. Trofimov [5] (1996) ma'lumotlariga ko'ra, Yaqin Sharqda Lyavlyakon-plyuvial davrida (mil. avv. 7–4 ming y.) cho'l iqlimi kuchaygan, daryolar oqimi esa hozirgidan yuqori bo'lgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tarixiy-falsafiy metod, qiyosiy tahlil metodi, kontent tahlili asosida tadqiqot amalga oshirildi.

Tahlil va natijalar. Qadimgi Sharq sivilizatsiyalarida tabiat muqaddas sanalib, Markaziy Osiyo hududida shakllangan

zardushtiylik ta'limotida ham tabiatni asrash, yer, suv va havoni pok saqlash g'oyalari muhim o'rin tutgan. zardushtiylikning muqaddas kitobi bo'lgan "Avesto" da ham bu g'oyalar o'z aksini topgan hamda unda tabiat unsurlarini muqaddas deb bilish va ularga zarar yetkazmaslik haqida qator ko'rsatmalar berilgan. Zardushtiylik falsafasida borliq yaxlit tizim sifatida talqin qilinadi va undagi barcha unsurlar – yer, suv, havo hamda olov – hayotning asosiy manbalari sifatida e'tirof etiladi. Mazkur qarashlar tabiat va inson o'rtasidagi uyg'unlik tamoyiliga asoslangan bo'lib, u ekologik madaniyatning muhim falsafiy poydevorini tashkil etadi. Zardushtiylik ta'limotida borliq yaxlit va o'zaro bog'langan tizim sifatida talqin qilinadi. Ushbu qarash falsafada mavjud bo'lgan yaxlitlik (butunlik) va o'zaro bog'liqlik kategoriyalari bilan bevosita uyg'unlashadi. Unga asosan, tabiatdagi har bir unsur – yer, suv, havo, o'simlik va hayvonot olami – umumiy borliq tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu sababli ham tabiatdagi har qanday o'zgarish yoki zarar alohida hodisa sifatida emas, balki butun tizim muvozanatiga ta'sir ko'rsatuvchi jarayon sifatida talqin qilinadi. Falsafiy nuqtayi nazardan qaralganda, bu qarash sabab va oqibat, tizim va element, o'zaro ta'sir kabi kategoriyalar orqali izohlanadi. Agar ushbu elementlardan biriga zarar yetkazilsa, bu jarayon sabab sifatida namoyon bo'lib, uning oqibati sifatida butun ekologik muvozanatning buzilishi yuzaga keladi. Shuning uchun ham zardushtiylik falsafasida tabiatni asrash va uning pokligini saqlash nafaqat amaliy ehtiyoj, balki borliqning tabiiy tartibini saqlab qolish bilan bog'liq ma'naviy-axloqiy burch sifatida talqin qilinadi.

Tabiat tizimining falsafiy kategoriyalar asosidagi o'zaro bog'liqlik modeli



1-rasm. “Tabiat tizimining falsafiy kategoriyalar asosidagi o'zaro bog'liqlik modeli”.

Tabiatni yagona va yaxlit tizim sifatida talqin etgan yashil rang – falsafiy nuqtayi nazardan ontologik kategoriyani tashkil etadi. Tabiatning yaxlitligi insonning ekologik madaniyatini shakllantirishda asosiy poydevor hisoblanadi.

Elementlar – yer, suv, havo, o'simlik va hayvonot tushunchasi tabiat tizimining ontologik tarkibiy qismlari sifatida talqin qilinadi. Falsafiy nuqtayi nazardan, har bir element tizimning ajralmas qismi bo'lib, u o'z mustaqil mavjudligi bilan birga butun tizimning dinamik uyg'unligiga hissa qo'shadi. Bu yondashuv sistematik va holistik paradigmalariga mos keladi: tizim va element kategoriyalari orqali tabiatni faqat individual qismlari sifatida emas, balki o'zaro bog'langan va doimiy o'zaro ta'sirga ega bo'lgan yaxlit bir borliq sifatida tushunishga imkon beradi [6]. Shuningdek, bu falsafiy konsepsiya unsurlar o'rtasidagi sabab-oqibat va o'zaro ta'sir munosabatlarini ochib beradi. Masalan, yerning degradatsiyasi suv resurslariga, havoning ifloslanishi o'simlik va hayvonot dunyosiga ta'sir qiladi. Shu nuqtayi nazardan tabiat elementlari isolatsiyalangan obyekt sifatida emas, balki butun ekologik tizimni shakllantiruvchi, o'zaro bog'liq va bir-birini ta'minlaydigan dinamik subyektlar sifatida ko'riladi [7]. Elementlar va tizim o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik falsafiy kategoriya sifatida “tizim – element munosabati” orqali tushuntiriladi. Shu munosabat orqali ekologik tafakkurning muhim tamoyili – tabiat Ko'rinadiki, tabiatning yaxlitligi, unsurlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va tizimning uyg'unligi konsepsiyasi ekologik tafakkur hamda insonning tabiat bilan uyg'un munosabatidagi mas'uliyatini ham falsafiy-ilmiy asoslaydi. Bu g'oya zardushtiylik falsafasidagi tabiatning yaxlitligi va unsurlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tamoyili bilan to'liq uyg'unlashadi, natijada ekologik madaniyatning nazariy poydevorini tashkil etadi. “Avesto” matnlarida tabiatni asrashga oid chaqiriqlar ko'plab uchrab, ular ekologik jarayonlarning kuchayishi bilan bevosita bog'liq edi. Ushbu manbalarda havo, suv va yerning tozaligi kabi tushunchalar ekologiyaning asosiy kategoriyalaridan biri bo'lgan biogeotsenoz tarkibiy qismlari bilan uzviy bog'liq tarzda ko'rsatiladi. Biogeotsenoz tushunchasi ma'lum hududda birgalikda yashaydigan tirik organizmlar majmuasi sifatida [8]. Shuningdek, ekotop ya'ni tirik organizmlar yashaydigan jonsiz muhit qadimgi Sharq ekologik tafakkur turli bo'linmalarga (klimatop, gidrotop, edafatop) ajratilgan edi, ushbu bo'linmalar o'zaro uyg'unlik va tizimlilikni tasvirlangan. Bu bo'linmalar zamonaviy ekologiya tushunchalari bilan uzviy bog'liqlikni ko'rsatadi va inson hamda tabiat o'rtasidagi uyg'unlikni qadrlashning falsafiy asosini ochib beradi².

“O'quvchilarni ekologik tarbiyalashda “Avesto”ning o'rni” maqolasida L.Berdiyeva shunday ta'kidlaydi: “Bolalar erta yoshdan daraxt ekish, yerga ishlov berish va chorvachilik bilan shug'ullanishga o'rgatilishi kerak. Avesto ta'limotida hosil yetishtirish yovuz kuchlarni zaiflashtirish timsoli sifatida ko'rsatiladi. Inson umr bo'yi yer, suv va olovni pok saqlashga majbur bo'lib, qoidalarni buzganlar uchun jazo belgilangan. Shu bilan birga, dehqonchilik ezgulik va tabiatni muhofaza qilishning ifodasi sifatida talqin qilinadi” [9]. Axuramazda deydi: “U shunday yurtdirki, u yerda bandalarim o'zlariga maskan, ibodat uchun otashkadalar, hayvonlarga qo'ralar qurib, oilali, bola-chaqali, kuchli qurolli bo'ladilar. Ana shu taqdirda ularning yurtida

hayvonlar ko'payadi. Xayru Baraka oshadi, yaylovlar ko'payadi, oila bunyod bo'ladi, turli-tuman nozu ne'matlar serob bo'ladi” [10]. Bundan tashqari, yer, suv, atrof-muhit, turar joy, inson tanasi, kiyim-kechak hamda oziq-ovqat mahsulotlarini toza saqlashga alohida e'tibor qaratilgan. Manbalarda ta'kidlanishicha, o'simliklar va mevali daraxtlar o'stirilgan, suvlari toza va oqib turadigan hududlar eng yaxshi maskan, aksincha, ayol va bolalar notinch hayot kechiradigan, sarson-sargardon yurishga majbur bo'ladigan joylar yomon zamin sifatida baholangan. Shuningdek, yerga zarar yetkazgan, uni ifloslantirgan yoki uni asrash qoidalariga rioya qilmagan shaxslarga nisbatan qat'iy choralar, jismoniy jazolar qo'llanilgan. Bundan tashqari, inson yashaydigan joyda gigiyena qoidalariga amal qilish muhim sanalib, xonada yuvinish yoki cho'milish man etilgan [11].

Zardushtiylikda tabiat unsurlari: yer, suv, olov va havo, nafaqat tabiiy resurs sifatida, balki kosmik va ma'naviy tartibning ajralmas qismi sifatida qadrlanadi [12]. Bu unsurlar Avestoda insoniyat hayoti va tabiat uyg'unligining falsafiy asoslari sifatida ko'rsatiladigan inson hayoti uchun asosiy tayanch bo'lsa, suv esa uni tozalovchi va yangilovchi muhim unsur sifatida talqin etiladi. Avesto manbalarida suv “Arđvī Sūrā Anāhita” nomi bilan tilga olinib, u nafaqat suv manbalarining homiyi, balki baraka, hosildorlik hamda ayollar pokligining ramzi sifatida qaraladi. Suvga bag'ishlangan ibodatlar orqali insonlar uni e'zozlash, ifloslantirmaslik va tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabatda bo'lishga da'vat etilgan.

Masalan, “Yasna 38” qismida Ahura Mazda tomonidan suvning yaratilgani e'tirof etilib, unga hurmat bajo keltirish lozimligi alohida ta'kidlanadi. Zardushtiylik ta'limotida suv bebaho ne'mat sanalib, uni bulg'ash nafaqat tabiatga zarar yetkazish, balki diniy me'yorlarni buzish sifatida baholanadi. “Vendidad” bo'limida esa suvni iflos qilgan shaxslarga nisbatan og'ir jazolar belgilanishi qadimgi jamiyatda ekologik ong yuqori darajada shakllanganidan dalolat beradi.

Bundan tashqari, olov (“Atar”) Ahura Mazdan timsoli sifatida qabul qilinadi. Yer, suv va olov o'zaro uyg'un holda talqin etilib, ularning barchasi poklik, hayot manbasi va ilohiylik kabi umumiy xususiyatlarni mujassam etadi [13]. Shu bilan tabiat inson bilan Ahura Mazda o'rtasidagi ruhiy aloqa vositasi sifatida qadrlanadi, ya'ni tabiatni asrash va unga hurmat ko'rsatish falsafiy va ma'naviy majburiyat sifatida qaraladi. Shu tarzda, Avestoda yer, suv, olov va havo kabi to'rt asosiy unsurning qadri, ularning inson hayoti va tabiat uyg'unligidagi roli, ekologik madaniyatning falsafiy asoslarini yaratadi. Zardushtiylik qarashlarida yerga hayot baxsh etuvchi kuch sifatida e'tirof etilgan Tishtar “Tiyar yasht”da uning yomg'ir keltirish qudrati madh etilib, tabiatni suv bilan ta'minlashdagi roli tasvirlanib, qurg'oqchilik kuzatilgan paytlarda insonlar aynan shu ilohiy kuchga yuzlanib, yog'in-sochin tilab duo va iltijolar qilganlar. Ushbu e'tiqodiy qarashlar xalq og'zaki ijodida o'z aksini topib, Tishtar nomi asta-sekin “Sust” ko'rinishiga o'tib, o'zbek folklorida “Sust xotin” obrazi orqali ifodalangan. Dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholi qurg'oqchilik davrida maxsus marosimlar o'tkazgan. Ayollar bir joyga yig'ilib, qo'g'irchoq yasab, uni kampir libosiga o'xshash kiyim bilan bezagan holda qo'shiqlar aytib, uyma-uy yurishgan. Har bir xonadonda qo'g'irchoqqa suv sepilib, marosim ishtirokchilariga

ehsonlar berilgan. Shu tarzda "Sust xotin" bilan bog'liq marosimlar qadimiy diniy qarashlarning xalqona talqini sifatida yashab kelgan.

Sust xotin-o, Sust xotin,
Ko'lankasi maydon xotin, Sust xotin.
Dehqonlarni g'am bosdi, Sust xotin.
Omochini chang bosdi, Sust xotin.
Havo yog'sin sevalab, Sust xotin.
Bo'ri qochsin tebalab, Sust xotin,
Bug'doy bo'lsin zarchalab, Sust xotin,
Sag'ir - sug'ir qolganlar, Sust xotin,
Nonni yesin parchalab, Sust xotin,

Sust xotin-o, Sust xotin,

Ko'lankasi maydon xotin, Sust xotin [14].

Xulosa va takliflar. Ekologik madaniyat inson va tabiat o'rtasidagi uyg'un munosabatlarni yo'lga qo'yishga xizmat qiluvchi muhim falsafiy qarashlarga asoslanadi. Avestoda ilgari surilgan g'oyalar - tabiatdagi muvozanatni saqlash, barcha mavjudotlarning o'zaro bog'liqligi va hayotning yaxlitligi - ekologik tafakkurning nazariy poydevorini tashkil etadi. U insonning ichki dunyosini boyitish, ma'naviy kamolotga erishish hamda jamiyatning izchil va barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Huxley, Julian. Evolutionary Humanism. London: Chatto & Windus, 1972
2. Yelinek, J. Early Urbanization in the Near East. Prague: Academia, 1982.
3. Altunin, V.S., Shulyak, A.S. Archaeology and Human Impact on Nature. Moscow: Nauka, 1991.
4. Ribakov, B.A. (ed.). Archaeological Research in Central Asia. Tashkent: Fan, 1985.
5. Trofimov, G.N. Climatic Changes in the Near East. Moscow: Nauka, 1996.
6. Capra, Fritjof. The Web of Life: A New Scientific Understanding of Living Systems. New York: Anchor Books, 1997.
7. Leopold, Aldo. A Sand County Almanac. Oxford University Press, 1949
8. Sukachov, V.N. Biogeotsenozlar va ularning ekologiyasi. Moskva: Nauka, 1950.
9. Muhammadiyeva M.M. "Avesto" ekologik taraqqiyot talqinida // Qarshi davlat universiteti ilmiy jurnali. – 2016. – № 6. – B.68-89.
10. Berdiyeva, L. O'quvchilarni ekologik tarbiyalashda "Avesto" ning o'rni. Toshkent: Pedagogika–psixologiya va ta'lim menejmenti kafedrası, 2020.
11. L. Berdiyeva. O'quvchilarni ekologik tarbiyalashda "Avesto" ning o'rni Ziyonet / elektron kutubxona materiali, 2021-yil 12-aprel
12. Yuldosheva Bibirajab, Astanova Nasiba. Avesto matnlarida yer va suv unsurlarining tarixiy talqini // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2025. – Vol. 5, No. 4 (April). – ISSN: 2181-1784
13. Shu maba
14. Abdurashid Abdurahmonov. Turkiy xalqlar og'zaki ijodi, Samarqand, 2006
15. Avesto. O'zbekcha tarjima (Asqar Mahkam tarj.) T.: 2001.
16. "Avesto" dan (tarj. M. Isoqov) O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 1999. №2-
17. Homidov H. "Avesto" fayzlari. – T.: 2001
18. Rahmonov N.. "Avesto" ning paydo bo'lishi. "O'zbekiston ovozi" 2001, 26
19. Rahmonov N. "Avesto": Zamin, vatan demakdir. - "O'zbekiston ovozi" 2001, 25 sentabr.